



TURLI SOHA VAKILLARIGA CHET TILINI O'QITISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Xamrakulova Ravshanoy Abdulaxatovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

ravshanoyhamrakulova@gmail.com

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-49>

ARTICLE INFO

Received: 10th February 2023

Accepted: 20th February 2023

Online: 21th February 2023

KEY WORDS

Mohir pedagog,
kuzatuvchanlik, ijtimoiy guruh,
kasbiy nutq, kasbiy
dunyoqarash,
moslashuvchanlik.

ABSTRACT

Maqolada chet tilini nomutaxassislariga o'qitishga qanday muammolar yuzaga kelishi va ularni yechimini topish uchun ularning kasbiy faoliyatiga ahamiyat berishimiz haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari turli soha vakillarini mashg'ulotlarga jalb qilishimiz uchun bir qator kuzatuvlar oqibatida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Chet tilini talabalarining mutaxassisligidan kelib chiqib o'rgatishning ahamiyati haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ularning dunyoqarashi va kasbiy faoliyatiga aloqador ma'lumotlarni berish mashg'ulotning samarali bo'lishiga turtki bo'ladi. Fakultetlararo chet tilini o'qitish fan o'qituvchisidan biroz ma'suliyatni va tirishqoqlikni talab qiladi. Bunga asosiy sabab shuki, talabalarining kasbiy jihatiga ko'ra ular tilshunos emas. Ular uchun tilning sathlari va turli ko'rinishlari ahamiyat kasb etmaydi. Mohir pedagog ularning talablarini qondirish maqsadida mutaxassisligiga oid termin va atamalarni, turli savol va topshiriqlarni ochib berishga harakat qiladi. Shu tarzda talabalarining chet tiliga bo'lgan qiziqishi ortadi. Albatta, bu kabi mulohazalarni ko'plab tilshunos olimlar va mahoratli pedagoglar o'z tajribasida kuzatib amaliyotga tadbqiq qilgan. Shunday bo'lsa-da biz yosh ilmiy izlanuvchilar sifatida mashg'ulotlar va boshqa bir qator kuzatishlarimiz oqibatida yuzaga kelgan xulosalarimizni aytib o'tmoqchimiz. Bizning fikrimizga ko'ra, tilni o'rganish va amaliyotga tadbqiq etish so'zlovchining hayotiy tajribasi va muhiti orqali yuzaga chiqadi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o'zining hamfikrlarini muloqot va turli vaziyatlardagi harakatlari orqali topadilar. Bilamizki, jamiyatimizda insonlar turli vositalar yordamida muloqotga kirishadilar. Asosan, biz, harf va tovushlarni bir-biriga bog'lab ruhiyatimizda gavdalangan voqealarni ommaga tadbqiq qilamiz. Jamiyat – turli dunyoqarashlar va ruhiyatlar jamlanmasidir. Uning har bir qatlami o'ziga xos ruhiy, falsafiy va dunyoviy ilmlardan yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlab bir-biri bilan almashiniladi. Tilning asosiy maqsadi insonlarni birlashtirish va o'ziga xos hayotiy dvigatelni ishga tushirishdir. Agar siz suhbatdoshingizni tilini tushunmasangiz, u bilan aloqaga kirisha olmaysiz degan fikr kelishi mumkin. Aslida ham shundaymikin? Jamiyatda inson uchun tilni bilish yetarliimi? Bu savolga javobni topishdan oldin, bir necha vaziyatlarni ko'rib chiqamiz. Talabalarga mos bilimni berishimiz uchun ularni qanday qobiliyatga va dunyoqarashga ega ekanliklarini tushunishimiz kerak bo'ladi. Bu kabi savollarga javob



olishimiz uchun esa, allaqachon shaxs va mutaxassis sifatida shakllangan hamkasblarimizga bir nechta savollar beramiz. Avvalo, bir xonada turli yoshdagi bir xil kasbga ega, lekin yo'nalishi xar hil bo'lgan ustozlarni kuzatamiz. E'tibor bering, bu soha vakillari shaxs sifatida shakllangan o'ziga xos fikrga ega bo'lgan insonlardir. Ular bir tilda so'zlashadilar, lekin bir mavzu yuzasidan har birida farqli g'oya va mulohazalar kelib chiqadi. Bu tilning birligi, lekin nutqning alohidaligidir. Nutqning alohidaligi- insonlarning hayoti davomida olgan ma'lumotlar jamlanmasining ruhiyatga va nutqiga ta'siridir. Jamiyatda insonlarning har birida g'am-qayg'u, iztirob, alam, xursandchilik, baxtlilik, omadsizlik kabi ruhiy kechinmalar guldastasi nutqining hissiy-ta'siriy o'zgaruvchanligiga olib keladi.

Masalan, quyidagi parcha va qo'shimcha ikkita savolni turli yoshdagi, lekin bir kasb egalari bo'lgan ustozlarga o'qib chiqishlari uchun havola qildik. Ularga alohida har biriga savollar tushirilgan qog'ozlar tarqatildi va o'qib fikrlarini yozishlari uchun vaqt berildi.

Uzoqdan ko'rsam ham yetardi balki,
Uzoqlik yaqinni ezardi balki,
Yaqindan ko'rganda to'yarmi ko'ngil,
Uzoqlik-yaqinlik qay biri og'ir.
Qalbida insonni mudom jang ketar,
Aql ko'ngilni changalga olar,
Ko'ngil bir burchakda yotadi unsiz,
Aql bechorani ezadi essiz..
Faqat bir narsada ikkisi kuchsiz,
Allohning qudrati bo'lar shubhasiz.

1.Yuqoridagi parchada muallif nima demoqchi ekanligiga ta'rif yozing.

2.O'rmon bu –...

3.Chet tilini o'rganishning ijobiy va salbiy tomonlari haqida fikr bildiring.

Har bir qatnashgan ishtirokchi tomonidan turli munosabatlar bildirildi. Ularning yoshi va hayotdagi to'plagan bilimlari turli fikrlarni aytishiga turtki bo'ldi. Qatnashuvchilarning fikrlaridan misol tariqasida ko'rsatib o'tamiz. Avvalo, hisob-kitob ishlari va aniq sonlar bilan ish olib boradigan iqtisodchi ustozlarimizning fikrlari bilan tanishib chiqamiz. Birinchi savolga ular tomonidan quyidagi ko'rinishdagi javoblar keltirilgan. "Ushbu she'r yolg'iz, ichki kechinmalar ta'sirida pessimistik ruhda yozilgan. Hayotga qiziqish bilan boquvchi insonga tushunarsiz ta'sir qiladi". "Aqlimiz Allohni oldida ojiz, lekin qudrati shubhasizdir –demoqchi".

"Biror insonni sog'ingan yoki kasal odamning hayollari". Ikkinchi savolga ular o'rmonni qanday tasavvur qilishlari haqida yozishlari lozim edi. Shunga ko'ra ular quyidagicha fikr bildirdilar. "Ko'm-ko'k daraxtlar qalin tarzda o'sgan, qorong'i va vahimali joydir. Turli xil yovvoyi hayvonlarga makon hisoblanadi". "Daraxtlari juda ham ko'p bo'lgan joy. Hech kim yo'q hamma yoq loy va chakalakzorlardan iborat joy". "Ko'p sonli daraxtlar, qorong'ilik, hayvonot va o'simlik olami, tabiatning bir ko'rinishi". Uchinchi savolga ularning javoblari quyidagi ko'rinishda berildi. "Chet tilini bilish insonga ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. Turli xil millatlar bilan aloqa qilish imkoniyatini beradi. Chet tilidagi kitob, dasturlarni o'qish va bilimni oshirishga xizmat qiladi. Foydasiz tomoni yo'q". "Gaplashish uchun, inson ma'naviyatini boyitishga aql-zakovatini o'stirishga, fikrlashga, dunyoqarashini kengayishiga



yordam beradi". "Chet tili foydali, boshqa ellarning hayotini, turmushini, fikrini o'rganish va bilishga imkon beradi".

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, aniqlik va tizimlilikni xush ko'ruvchi iqtisodchilarimiz uchun bu kabi she'rlar vaqtni behuda o'tkazish va tarqoqlikni bildiradi. Go'yoki, ular uchun har bir bo'layotgan voqea-hodisada aniq bir maqsad va yechim bo'lishi muhimroqdek. Bundan tashqari, ularning aytishicha "Har bir misra marjondek ipga bog'lanishi va ma'lum bir yaxlitlikni hosil qilishi lozim". Avvaliga, biz kabi she'riyatni ilohiy ishqa bog'lab so'zning ruhiyatini anglashga, uni his qilishga intiluvchi insonlar uchun yuqoridagi kabi fikrlar og'riqli va kamsitilish kabi bo'lishi mumkin. Lekin ularning kasbiy dunyoqarashini hisobga olib, bu ta'rifni boricha qabul qildik. So'zni ichki xususiyatini his qiluvchi va sevuvchi kasb egalari bo'lgan tilshunoslar she'rga quyidagicha ta'rif berdilar.

"Ko'z oldimga qarindoshlarim, dugonalarim keldi".

"Ko'ngil va insonning aqli ko'z oldimizga keladi".

O'rmon haqida quyidagicha fikr bildirdilar:

"O'rmon deganda Rossiya hayolimga keldi. Rossiyaning bepoyon o'rmonlari, daraxtlari, "beryoza" ya'ni "oqqayin" daraxtlari ko'z oldimda gavalandi". "Daraxtlar bilan qoplangan katta yer maydoni". Bunga asosiy saba, so'zlovchining yoshlik davri bilan bog'liq xotiralar hisoblanadi. Jismoniy tarbiya ustozlari bildirgan fikrlarni tahlil qilib ko'ramiz. "Sog'inch va taqdiri azalga bo'ysunish". "Moddiylikning inson hayotiga ta'siri. Ehtiyojlarimizning ko'ngil istaklari oldidagi ojizligi. Hayotda biror narsaga erishdagi to'siqlar haqida fikr yuritilmoqda". "Ushbu she'rda insonni ko'nglida kechadigan kechinmalari, o'zini- o'zi boshqara olish-olmasligi, mudom o'ygatish, lekin barchasi Allohning qudratiga bog'liqligi aks ettirilgan". O'rmon bu- degan savolga ular quyidagicha ta'rif berdilar. "Ulkan daraxtlar va ularning cheksizligi, yovvoyi hayvonlar makoni va juda qiziqarli, jozibali joylar".

"Bugungi kunda najotlarimiz. Butun biosferani kislorod manbai. Ona tabiatni mo'jizasi. Iqtisodiy jamiyatning ham xomashyo rezervi. Insoniyatni tabiat bilan bog'lovchi ko'pri". "Daraxtlar to'plami ustun bo'lgan, yetuklik davrida balandligi kamida 2 metrga yetishi mumkin bo'lgan va hayvonlar, o'simliklar, tuproq suv kabi barcha tirik va jonsiz narsalarni o'z ichiga olgan yer maydoni". Chet tilini o'rganishimizdan maqsad nima va uning ahamiyatli tomonlari haqida quyidagicha fikr bildirdilar. "Dunyoni ko'proq bilish va sodir qilish uchun". "Til bilgan- el biladi. Til bu ijtimoiy hodisa bo'lib, insonlarni muloqot vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, o'z ona tilini mukammal bilish, o'z ma'naviyatini to'liq tushunish va tushuntira olishni ifodalasa, chet tilini bilishlik ham mazkur til vakillari bilan muloqot qilish va xalqlarni ma'naviyatini anglashga yordam beradi. Shu tariqa xalqlar va turli dunyolar o'rtasida yangi bilimlar almashinishi imkoniyatidir".

Tahlillarimizdan shunisi ma'lum bo'ldiki, kasb insonning so'zdan foydalanish kabi ma'naviyatini ochib beruvchi omil bo'lishi biroz noto'g'ri fikr ekan. Biz agar kasbni asosini muloqot qilish va so'zni tahlil qilish bo'lsa, u holda shaxsning so'zni his qilish darajasi yuqoriroq bo'ladi deb yangilash fikrda ekanmiz. Chunki asosiy vazifasi tana tuzilishi va rivojlanishini o'rganuvchi ustozlarimiz berilgan savollarga juda chiroyli tarzda fikr bildirganlar. So'z mohiyatini anglash shoir, yozuvchi yoki suhbatdosh bilan bir to'ldirida suzish barobaridadir. Xuddiki, tilni o'rganish faqatgina chet tiliga aloqador emas, balki o'z ona tilini har bir qatlamini tushunishi insonni haqiqatdan ham bir tilda gaplashishini anglatadi.



Biz bir-birimizni fikrlarimizni to'raligicha anglaymizmi, buning uchun nimaga e'tibor berishimiz kerak. Biz insonlarda shunday bir kamchilgimiz bor fikrimizga ma'qul kelmagan fikrni tan olmaslik, vaholanki, u biznikidan afzalroq bo'lishi mumkin. Muallif aslida, nima demoqchiligini ko'rib chiqamiz. Bu she'riy misralar orqali muallif inson hayotida turli omadsizliklar tufayli yaqin insonlariga- aka-uka,ota-ona, do'st-u birodari va turmush o'rtog'iga aslida istaganidek muomalada bo'la olmayotganligi ko'rsatilgan. Inson qalbida turli ziddiyatli kechinmalar tufayli yaqin insonimizga hayotlik chog'ida mehr ko'rsata olmasligimiz, keyin esa u insonning dunyodan o'tgandan so'ng afsus chekib o'zimizni xatolarimizni kechira olmasligimiz doimiy ravishda qalbimizda fikrlar g'alayoni bizni tinch qo'ymayotgani aks etgan."Agar yonimda bo'lganida bu menga yetarmidi yoki men yana o'sha xatoni takrorlarmidim?" kabi savollar changalida yashagan insonning hayotot mahsulidir. Lekin bu taqdirning qarori, unga bo'ysunmasdan iloji yo'qligi va bu eng to'g'ri najot ekanligi ko'rsatilgan. Najot-bu ilohiy nurni qalbimizga joylashuvidir. Bu nur insonni qurshab olgan to'xtovsiz savollarni tugashi va yo'qolib ketishi uchun yetarli vositadir. Unga yetishish uchun turli omadsizliklar va xiyonatlar, chiroyli ilm safaridagi sabrlar orqali amalga oshadi. Ilm safari- bu ishq safaridir. Uzoq va mashaqqatli sabrni, qarama-qarshiliklarni va kechira olish qobiliyatini sinaydi. Yuqoridagi misralar har bir insonning ayni damda nimaga muhtojligi bilan fikrlarning o'xshashligini o'tkazilgan bir savolnomada tushunganday bo'ldik. Albatta, bu bizning fikrimiz bo'lib, biz ham so'zlarni o'zimizni tushunchamiz orqali anglashga harakat qildik. Yuqoridagi kuzatishlar chet tilini o'qitishga qanday yordam berishi mumkin degan savolimizga javobni izlab ko'ramiz. Avvalo, iqtisodchilar aniqlik, lo'ndalik va samaradorlik tushunchasini olg'a suradilar. Shunga ko'ra tilning qaysi jihatlari kasbda qo'llanilishi mumkinligini amalda tushuntirib berishimiz kerak bo'ladi. Foydali bitim tuzish yoki xorij davlatlaridan daromadli sarmoya olish kabi sabablarni dalillab berishimiz darkor. Tabiatida har sohada g'oliblikka intilishi bor jismoniy tarbiya soha vakillariga mashg'ulot davomida mavzuga doir musobaqalarni tashkillashimiz yuqori natija ko'rsatishi mumkin. Bolalarcha beg'uborlikni o'zida aks ettiruvchi maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim mutaxassisligida tahsil oluvchi talabalarimizga o'z-o'zidan turli qiziqarli o'yin va topishmoqlardan foydalanish mashg'ulotning qiziqarli va foydali bo'lishiga turtki bo'ladi. Chet tili fani o'qituvchilarining kuzatuvchanligi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi katta ahamiyat kasb etadi. Talabarning istaklarini inobatga olib mashg'ulot tashkillanishi ikki tomon uchun ham foydali hisoblanadi.

References:

1. Abdulakhatovna, K. R. (2022). LANGUAGE ACQUISITION. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 113-118.
2. Abdulakhatovna, K. R. (2022). DIPLOMATIC DISCOURSE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 18-22.
3. Abdulaxatovna, X. R. (2022). ABRAHAM LINKOLN IBORALARINING MISOLIDA NUTQNING PSIXOLINGVISTIK KO 'RINISHI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 413-416.
4. Abdulakhatovna, K. R. (2022). THE NOTION SPEECH ACTS AND ANALYSES OF THE WORK "A CUP OF TEA" BY KATHERINE MANSFIELD. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL



SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(08), 135-140.

5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6339996> Turdimatova Madina. Kinoyaning ijobiy tanqid orqali ifodalanishi. 02.02.2022. Russia.

6. Turdimatova Madinaxon Ravshanovna. (2022). THE PERCEPTIVE MEANING IN VERBAL IRONY. E Conference Zone, 19–21. Retrieved from

7. Turdimatova Madinaxon Ravshanovna. DIFFERENT TYPES OF IRONY IN LITERATURE. Vol. 3 No. 4 (2022): wos. Web of Scientist: International Scientific Research Journal